O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI MUZRABOT TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-17-26, muzrabod.t@exat.uz

2022 - yil 28 - iyun 300-8-115-Q/22 Muzrabot tuman hokimligi

Muzrabot tuman hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 27-sentyabrdagi PF–6075-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24 va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentyabrdagi PF–6075-son Farmonida 2021-yil 1-iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Muzrabot tuman hokimi tomonidan qabul qilingan eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Matbuot xizmati J.Abdurasulov mazkur qarorning rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish hokim o‘rinbosari

A.Achildiev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **E.J.Alimov**

Muzrabot tuman hokimining
2022 yil 28 iyundagi
300-8-115-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Muzrabot tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Muzrabot tuman hokimining «Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida» 2011 yil 26 sentyabrdagi 514-son qarori.

2. Muzrabot tumani hokimining « Muzrabot tumanidagi qishloq xo‘jaligi va meliorativ texnikalarni, shuningdek mashina-traktor parklari, ustaxonalar va servis punktlarining asbob-uskunalarini 2017 yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida» 2017 yil 24 yanvardagi 164-son qarori.

3. Muzrabot tuman hokimining «2019 yilda Muzrabot tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida»gi 2018 yil 28 sentyabrdagi Q-2289-son qarori.

4. Muzrabot tuman hokimining «Tumandagi qishloq xo‘jaligi va meliorativ texnikalarni, shuningdek mashina-traktor parklari, ustaxonalar va servis punktlarining asbob-uskunalarini 2019 yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida»gi 2019 yil 15 fevraldagi Q-1153-son qarori.

5. Muzrabot tuman hokimining «Tuman xududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini 2019 yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida»gi 2019 yil 15 fevraldagi Q-1153-son qarori.

6. Muzrabot tuman hokimining «Surxondaryo viloyati hokimining 2019 yil 2 avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va ijtimoiy sohani 2019/2020 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga kompleks tayyorlashni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2019 yil 30 iyuldagi PQ-4407-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida»gi Q-357-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida»gi 2019 yil 06 avgustdagi Q-4265-son qarori.

7. Muzrabot tumani hokimining «Tuman hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini 2020 yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida» 2020 yil 15 fevraldagi Q-303-son

qarori.